

Излаш

**MUZEYLAR FAOLIYATIGA TAALLUQLI ME'YORIY HUJJATLAR TO'G'RISIDA****1-ILOVA**
Milliy muzey fondi to'g'risida Nizom**I. Umumiy qoidalar****II. Fond tarkibi****III. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash****IV. Fondni boyitish manbalari****V. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalaridan foydalanish tartibi****VI. Fond holati ustidan davlat nazorati****VII. Yakunlovchi qoidalar****2-ILOVA**
Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash tartibi to'g'risida NIZOM**I. Umumiy qoidalar****II. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish tartibi****III. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash tartibi****IV. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ta'mirlash ishlarini tashkil etish****V. Muzey rahbar xodimlari hamda mutaxassislarining muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlashga oid huquq va majburiyatlari****VI. Yakunlovchi qoidalar****3-ILOVA**
O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan qarorlari ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.10.2008 yildagi 237-son

Кучга кириш санаси

31.10.2008

Қўшимча ахборот

Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI**MUZEYLAR FAOLIYATIGA TAALLUQLI ME'YORIY HUJJATLAR TO'G'RISIDA**

“Muzeylar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuniga** muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Milliy muzey fondi to'g'risidagi **Nizom** 1-ilovaga muvofiq;

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash tartibi to'g'risidagi **Nizom** 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi manfaatdor vazirliklar, idoralar va tashkilotlar bilan birgalikda ikki oy muddatda “Muzeylar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining **4-moddasida** ko'rsatib o'tilgan Vazirlar Mahkamasining muzeylarni boshqarish sohasidagi vakolatlariga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarni belgilangan tartibda tasdiqlash uchun kiritsin.

3. Tasarrufida muzeylar bo'lgan barcha vazirliklar, idoralar va tashkilotlar “Muzeylar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuniga** hamda ushbu qaror bilan tasdiqlangan nizomlarga zid bo'lgan o'z me'yoriy hujjatlarini qayta ko'rib chiqib, bekor qilinishini ta'minlasinlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining **3-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari R. Qosimov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2008-yil 31-oktabr,
237-son

Vazirlar Mahkamasining 2008-yil
31-oktabrdagi 237-son qaroriga
1-ILOVA

Milliy muzey fondi to'g'risida NIZOM**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom “Muzeylar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuniga** muvofiq Milliy muzey fondining (keyingi o'rinlarda “Fond” deb yuritiladi) tarkibini, boyitish manbalarini, muzey ashyolari va kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash, ulardan foydalanish, fond holati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

2. Fond O'zbekiston Respublikasi hududidagi doimiy turgan muzey ashyolari va kolleksiyalari majmui bo'lib, ushbu muzey ashyolari va kolleksiyalarini aniqlash va asrab-avaylash, hisobga olish ishini markazlashtirish hamda ularni keng ommaga namoyish etish maqsadida tashkil etiladi.

3. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari O'zbekiston xalqi madaniy merosining ajralmas qismidir.

II. Fond tarkibi**4. Fond tarkibiga quyidagilar kiradi:**

jahon xalqlari tarixining turli davrlarini, ulkan tarixiy voqealarni, o'zbek davlatchiligi rivojlanish bosqichlari tarixini o'zida aks ettirgan ashyolar va kolleksiyalar;

xalqimiz madaniy-maishiy turmush sharoitlarining turli bosqichlarini o'zida aks ettirgan uy-ro'zg'or buyumlari;

ulug' davlat arboblari, sarkardalar va qahramonlar, siyosatchilar, ulamolar, fan va madaniyat arboblarning hayoti va ijodi bilan bog'liq bo'lgan barcha ashyo va kolleksiyalar;

fan va texnikaning rivojlanish bosqichlarini o'zida aks ettirgan hujjatlar, model-maketlar va boshqa ashyo va kolleksiyalar;

arxeologik qazilmalar chog'ida topilgan kolleksiyalar va alohida ashyolar;

haykaltaroshlik, rangtasvir, xalq amaliy san'ati, musiqa va teatr san'ati tarixini o'zida aks ettirgan ashyo va kolleksiyalar;

tabiat tarixi haqidagi geologik, paleontologik, mineral va tabiiy fanlarga oid boshqa ashyo va kolleksiyalar;

ijodning barcha sohasiga tegishli bo'lgan qo'lyozmalar, qo'lyozma va toshbosma kitoblar, nodir va qimmatbaho nashrlar;

tarixiy, ilmiy va badiiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa ashyo va kolleksiyalar.

5. Fond Milliy muzey fondining davlatga tegishli qismidan va davlatga tegishli bo'lmagan qismidan iboratdir.

6. Quyidagilar Fondning davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritiladi:

kimning egaligida turganligidan qat'i nazar, davlat mulki bo'lgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari;

Oldingi tahrirga qarang.

davlat muzeylari, boshqa davlat muassasalari tomonidan muassislar mablag'lari, o'z mablag'lari yoki boshqa mablag'lar hisobidan, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa usulda olingan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari.

(6-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

7. Fondning davlatga tegishli bo'lmagan qismi tarkibiga Fond tarkibiga kiritilgan xususiy mulk bo'lgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari kiradi.

Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini Fondning davlatga tegishli bo'lmagan qismi tarkibiga kiritish Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda ularning mulkdori arizasi asosida amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

8. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini Fond tarkibiga kiritish hamda uning tarkibidan chiqarish O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi tomonidan Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda amalga oshiriladi.

(8-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi 209-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2022-y., 09/22/209/0341-son)

Fond tarkibiga kiritilgan har bir muzey ashyosi va har bir muzey kolleksiyasi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni hisobga olish maqsadida Fondning Davlat katalogi yuritiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Fondning Davlat katalogi O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi tomonidan Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda yuritiladi.

(8-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi 209-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2022-y., 09/22/209/0341-son)

9. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari Fondning Davlat katalogida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan hisoblanadi.

10. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari mulkdoriga ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma beriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Guvohnoma shakli va uni rasmiylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi tomonidan belgilanadi.

(10-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi 209-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2022-y., 09/22/209/0341-son)

III. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash

11. Milliy muzey fondining davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari operativ boshqarish huquqi asosida davlat muzeylariga, boshqa davlat muassasalariga biriktirib qo'yiladi.

Fondning davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini operativ boshqarish topshirilgan davlat muzeylari, boshqa davlat muassasalari:

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining but saqlanishi hamda xavfsizligini;

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari bilan bog'liq hisobga olish hujjatlarining yuritilishi hamda but saqlanishini;

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalaridan ilmiy, madaniy, ma'rifiy hamda ta'lim maqsadlarida foydalanilishini ta'minlashi shart.

12. Fondning davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish ishlari ularni to'liq taqqoslash imkoniyatini ta'minlovchi hamda

MUZEYLAR FAOLIYATIGA TAALLUQLI ME'YORIY HUJJATLAR TO'G'RISIDA

1-ILOVA

Milliy muzey fondi to'g'risida Nizom

I. Umumiy qoidalar

II. Fond tarkibi

III. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash

IV. Fondni boyitish manbalari

V. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalaridan foydalanish tartibi

VI. Fond holati ustidan davlat nazorati

VII. Yakunlovchi qoidalar

2-ILOVA

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash tartibi to'g'risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

II. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish tartibi

III. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash tartibi

IV. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ta'mirlash ishlarini tashkil etish

V. Muzey rahbar xodimlari hamda mutaxassislarining muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlashga oid huquq va majburiyatlari

VI. Yakunlovchi qoidalar

3-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan qarorlari ro'yxati

ularning saqlanish joyi, saqlanish holati, foydalanish shakli va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi asosiy hisob hujjatlarini yuritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

13. Fond tarkibiga kiritilgan hamda muzeylarda turgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari fuqarolar kirib ko'rish uchun ochiqdir.

Fond tarkibiga kiritilgan hamda muzeylarda turgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kirib ko'rish quyidagi asoslarga ko'ra cheklanishi mumkin:

- muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining but saqlanish holati qoniqarsiz bo'lganda;
- restavratsiya ishlari amalga oshirilayotganda;
- muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari muzey zaxiraxonasida bo'lganda.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Fond tarkibiga kiritilgan muzeyning zaxiraxonasida saqlanayotgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini fuqarolar tomonidan kirib ko'rish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi tomonidan belgilanadi.

(13-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi 209-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2022-y., 09/22/209/0341-son)

14. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish hamda saqlash Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi.

IV. Fondni boyitish manbalari

15. Fondning davlatga tegishli qismini boyitish manbalari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- davlat budjeti, homiylik mablag'lari;
- muzeyning pullik xizmat ko'rsatishi evaziga to'planadigan mablag'lar;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

qonunchilikda belgilangan tartibda va holatlarda davlat tasarrufiga o'tgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari;

(15-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

arxeologik qazilmalar, ilmiy ekspeditsiyalar natijasida topilgan, shuningdek, topilgan xazinalardagi ilmiy, tarixiy, badiiy qiymatga ega bo'lgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari yig'indisi va hokazolar.

16. Fan-texnika taraqqiyotini muzeylarda aks ettirish uchun davlat tashkilotlari va muassasalari o'zlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlar namunalarini muzeylarga bepul berishlari lozim.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

17. Fondning davlatga tegishli bo'lmagan qismini boyitish mulkdor tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

(17-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

V. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalaridan foydalanish tartibi

18. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalaridan fan va madaniyatni, vatanparvarlik, g'oyaviy-ma'naviy kamolot va estetik tarbiyani rivojlantirish maqsadida foydalaniladi.

Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalaridan muzey ekspozitsiyalari va ko'rgazmalarida foydalaniladi.

Muzey o'z fondida saqlanayotgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari bo'yicha kataloglar, ilmiy ishlar to'plamlari, monografiyalar, qo'llanmalar, ilmiy axborotlar tayyorlashi va nashr etishi mumkin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga vaqtincha olib chiqish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

(18-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

19. Muzeida saqlanayotgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini boshqa muzeyga, muassasaga, tashkilotga o'tkazish ushbu muzeyning mulkdori (muassisi) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

(19-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi 209-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2022-y., 09/22/209/0341-son)

20. Yuridik va jismoniy shaxslarning Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalariga bo'lgan fuqarolik huquq va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga yo'naltirilgan harakatlari, shu jumladan, mulk huquqini boshqa shaxsga o'tkazish

MUZEYLAR FAOLIYATIGA TAALLUQLI ME'YORIY HUJJATLAR TO'G'RISIDA

1-ILOVA Milliy muzey fondi to'g'risida Nizom

I. Umumiy qoidalar

II. Fond tarkibi

III. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash

IV. Fondni boyitish manbalari

V. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalaridan foydalanish tartibi

VI. Fond holati ustidan davlat nazorati

VII. Yakunlovchi qoidalar

2-ILOVA Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash tartibi to'g'risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

II. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish tartibi

III. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash tartibi

IV. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ta'mirlash ishlarini tashkil etish

V. Muzey rahbar xodimlari hamda mutaxassislarining muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlashga oid huquq va majburiyatlarini

VI. Yakunlovchi qoidalar

3-ILOVA O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan qarorlari ro'yxati

mazkur harakatlar Fondning Davlat katalogida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyingina amalga oshiriladi.

21. Fondning davlatga tegishli bo'lmagan qismi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari bo'yicha oldi-sotdi yoki hadya bitimlari tuzilganda sotib oluvchi yoki hadya oluvchi ushbu ashyolar va kolleksiyalarga nisbatan sotuvchi yoxud hadya qiluvchida bo'lgan barcha majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi shart. Mazkur ashyolar va kolleksiyalarning oldi-sotdisida davlat imtiyozli sotib olish huquqiga ega bo'ladi.

Fondning davlatga tegishli bo'lmagan qismi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari vasiyat yoki qonunga binoan meros qilib olinganda merosxo'r ushbu ashyolar va kolleksiyalarga nisbatan meros qoldiruvchida bo'lgan barcha majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi shart. Bu majburiyatlardan bosh tortgan taqdirda, merosxo'r mazkur muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ushbu bandning **birinchi xatboshida** nazarda tutilgan shartlarda sotishi yoki boshqa bitim tuzishi mumkin. Bu holda davlat imtiyozli sotib olish huquqiga ega bo'ladi.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Agar sotib oluvchi, hadya oluvchi yoki merosxo'r Fondning davlatga tegishli bo'lmagan qismi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalariga nisbatan o'z majburiyatlari bajarilishini ta'minlamasa, davlat ushbu ashyolar va kolleksiyalarni qonunchilikka muvofiq haqini to'lab olish huquqiga ega.

(21-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalariga oid ushbu bandda nazarda tutilgan bitimlar Fondning Davlat katalogida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran tuzilgan hisoblanadi.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Ushbu bandning **birinchi — uchinchi xatboshilarida** nazarda tutilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini davlat tomonidan imtiyozli sotib olish huquqi yoki haqini to'lab olish huquqini ro'yobga chiqarish O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi yoki uning hududiy organlari tomonidan amalga oshiriladi.

(21-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi 209-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2022-y., 09/22/209/0341-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

22. Fondning davlatga tegishli bo'lmagan qismi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining oldi-sotdisida davlatning imtiyozli sotib olish huquqini ta'minlash maqsadida, mulkdor oldi-sotdi harakatlarini amalga oshirishdan uch oy oldin bu haqda O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi yoki uning hududiy organlariga yozma ravishda murojaat qilishi lozim.

(22-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi 209-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2022-y., 09/22/209/0341-son)

Ushbu Nizom talabi buzilgan holda tuzilgan bitimlar belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

VI. Fond holati ustidan davlat nazorati

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

23. Fond holati ustidan davlat nazoratini O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi amalga oshiradi.

(23-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi 209-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2022-y., 09/22/209/0341-son)

24. Fondning davlatga tegishli qismi holati ustidan davlat nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining but saqlanishi holatini hamda ularni saqlash sharoitlarini tekshirish;

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari haqida Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari hisobini yuritish uchun zarur bo'lgan so'rovnomalar yo'llash hamda axborot olish.

25. Fondning davlatga tegishli bo'lmagan qismi holati ustidan davlat nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining but saqlanishi holatini hamda ularni saqlash sharoitlarini tekshirish;

nodavlat muzeylarga biriktirib qo'yilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining mulkdori oldiga ularni saqlash joyini o'zgartirish yoki ularni tasarrufdan chiqarish to'g'risidagi masalani qo'yish;

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari haqida Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari hisobini yuritish uchun zarur bo'lgan so'rovnomalar yo'llash hamda axborot olish.

MUZEYLAR FAOLIYATIGA TAALLUQLI ME'YORIY HUJJATLAR TO'G'RISIDA

1-ILOVA Milliy muzey fondi to'g'risida Nizom

I. Umumiy qoidalar

II. Fond tarkibi

III. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash

IV. Fondni boyitish manbalari

V. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalaridan foydalanish tartibi

VI. Fond holati ustidan davlat nazorati

VII. Yakunlovchi qoidalar

2-ILOVA Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash tartibi to'g'risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

II. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish tartibi

III. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash tartibi

IV. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ta'mirlash ishlarini tashkil etish

V. Muzey rahbar xodimlari hamda mutaxassislarining muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlashga oid huquq va majburiyatlari

VI. Yakunlovchi qoidalar

3-ILOVA O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan qarorlari ro'yxati

26. Fond holati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

VII. Yakunlovchi qoidalar

Oldingi tahrirga qarang.

27. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, ulardan foydalanish, hisobga olish va ta'mirlash qoidalarini buzganlikda aybdor shaxslar amaldagi qonunchilikka muvofiq jinoiy, ma'muriy va boshqa tartibda javobgar bo'ladilar.

(27-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

28. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalariga ziyon yetkazgan yuridik va jismoniy shaxslar yetkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplab berishlari lozim.

Vazirlar Mahkamasining 2008-yil
31-oktabrdagi 237-son qaroriga
2-ILOVA

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash tartibi to'g'risida

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom "Muzeylar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish, saqlash, ta'mirlash ishlarini tashkil etish tartibi hamda muzey rahbar va mutaxassislarining shu sohaga oid huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Ushbu Nizom mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha muzeylar uchun majburiydir.

2. Muzeylar o'zlarida saqlanayotgan barcha muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari hisobga olinishi va saqlanishi uchun to'liq javobgardirlar.

3. Ushbu Nizom va boshqa tegishli me'yoriy hujjatlar asosida har bir muzeyda muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish, saqlash va ta'mirlashning ichki tartiblarini aniqlab beruvchi yo'riqnoma ishlab chiqiladi.

4. Muzey binosini yong'indan saqlash va qo'riqlash ishlari belgilangan tartibda tashkil qilinadi.

II. Muзей ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish tartibi

5. Muзей ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish deganda O'zbekiston Respublikasining umumxalq mulki bo'lgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini aniqlash va tegishli tartibda qayd etish tushuniladi.

Hisobga olish muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini o'rganish, namoyish etish va saqlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi hamda ularning huquqiy himoyalanihini ta'minlaydi.

6. Muзей ashyolari va kolleksiyalarini hisobga olish ikki bosqichda, ya'ni:

muзейga olingan ashyolar va kolleksiyalarning dastlabki himoya hujjatlarini tuzish (dalolatnomalar yozish, kirim daftarida ularning qisqacha tavsifini qayd etish);

ularni inventar daftarlarida hisobga olish, ya'ni ilmiy ro'yxatdan o'tkazish (muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini xillari va ma'lum bir san'at turiga mansubligiga qarab turkumlashtirish, tegishli daftarlarda kengaytirilgan va aniq tavsiflarini aks ettirish) tarzida amalga oshiriladi.

7. Muzeylarda saqlanayotgan ashyolar va kolleksiyalarning narxleri buxgalteriya hisoboti hujjatlarida aks ettirilmaydi.

8. Muzeyning asosiy va ilmiy-ko'makchi fondlari tarkibiga kiritilgan muзей ashyolari va muзей kolleksiyalari majmui muзей fondini tashkil etadi.

Fond ishlarini yuritish, muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini sotib olish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish masalalarini kollegial hal etish maqsadida muzeylarda Fond ishlari va sotib olish komissiyalari tashkil etiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

9. Muзейga olingan muзей ashyolari va muзей kolleksiyalari qat'iy tartibda hisobga olinib, hujjatlashtirilishi shart. Muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini rasmiylashtirish hujjatlari shakllari O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi tomonidan belgilanadi.

(9-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi 209-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2022-y., 09/22/209/0341-son)

10. Muзейga doimiy saqlash uchun olingan barcha muзей ashyolari va muзей kolleksiyalari ilmiy ro'yxatga olinadi.

Ushbu Nizomda belgilangan tartibda hisobga olinmagan muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini muzeylarda saqlash qat'iy taqiqlanadi.

11. Muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini hisobga olishning asosiy hujjatlari quyidagilar hisoblanadi:

kirim daftari va inventar daftarlari;

MUZEYLAR FAOLIYATIGA TAALLUQLI ME'YORIY HUJJATLAR TO'G'RISIDA

1-ILOVA Milliy muzey fondi to'g'risida Nizom

I. Umumiy qoidalar

II. Fond tarkibi

III. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash

IV. Fondni boyitish manbalari

V. Fond tarkibiga kiritilgan muзей ashyolari va muзей kolleksiyalaridan foydalanish tartibi

VI. Fond holati ustidan davlat nazorati

VII. Yakunlovchi qoidalar

2-ILOVA Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash tartibi to'g'risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

II. Muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini hisobga olish tartibi

III. Muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini saqlash tartibi

IV. Muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini ta'mirlash ishlarini tashkil etish

V. Muзей rahbar xodimlari hamda mutaxassislarining muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini hisobga olish va saqlashga oid huquq va majburiyatleri

VI. Yakunlovchi qoidalar

3-ILOVA O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan qarorlari ro'yxati

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini doimiy (vaqtincha) saqlashga oid qabul dalolatnomalari;

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ta'mirlash va hisobdan chiqarish dalolatnomalari (ular muzey fondi tarkibidan chiqarilgan hollarda);

fond ishlari va sotib olish komissiyalarining bayonnomalari, fond harakatiga taalluqli buyruqlar.

12. Muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini hisobga olish hujjatlariga kiritiladigan o'zgartirishlar direktor yoki bosh muhofiz (fond mudiri), hisobga olish bo'limining mudiri tomonidan imzolanadi va muzey muhri bilan tasdiqlanadi.

13. Muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini hisobga olish bo'yicha to'liq rasmiylashtirilmagan hujjatlar ijro uchun qabul qilinmaydi.

14. Muzeyning kirim va ilmiy ro'yxatdan o'tkazish daftarlarini yuritishdan avval ularning har bir sahifasiga tartib raqami qo'yilib tikiladi, muzey bo'ysunuvchi tegishli yuqori boshqaruv organi (nodavlat muzeylarda — mulkdor) tomonidan muhrlanadi.

15. Muzeyning barcha hisobga olish daftarlarini yangilash muzey bo'ysunuvchi tegishli yuqori boshqaruv organi (nodavlat muzeylarda — mulkdor) ruxsati bilan amalga oshiriladi.

16. Muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini hisobga olishga oid barcha hujjatlar muzeyda doimiy saqlanadi. Hisobga olish hujjatlari qonunchilikda belgilangan holatlardan tashqari boshqa shaxslarga berilmaydi.

17. Muзей ashyolari va muзей kolleksiyalari to'plami muzeylarning asosiy va ilmiy-ko'makchi fondlarida hisobga olinadi. Tabiat muzeylarida xomashyo fondi ham mavjud bo'ladi.

Oldingi tahrirga qarang.

18. Asosiy va ilmiy-ko'makchi fondlar tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish shakl va qoidalari O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi tomonidan ishlab chiqilgan Yo'riqnama asosida amalga oshiriladi.

(18-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi 209-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2022-y., 09/22/209/0341-son)

19. Muzeyning asosiy fondi tarkibiga kiritilgan barcha muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari fotosuratga olinishi shart.

20. Ilmiy ro'yxatdan o'tkazish asosiy fondagi muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini o'rganish, ilmiy tahlil etish va tavsiflashning asosiy shakli hisoblanadi.

21. Agar muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ilmiy ro'yxatdan o'tkazish kengroq sharh yoki mutaxassisning xulosasi zarur bo'lsa, xulosa berayotgan tashkilotning ekspertiza komissiyasi yoki o'sha mutaxassis ishlayotgan idora tomonidan tegishli tartibda rasmiylashtirilgan hujjat dalolatnomaga ilova qilinadi.

22. Ilmiy ro'yxatdan o'tkazish daftarlaridan chiqarib yuborilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining tartib raqamlarini ro'yxatdan o'tayotgan yangi muzey ashyosiga berish qat'iyon taqiqlanadi.

23. Ayrim hollarda (asosiy fondga saqlanayotgan ashyo shikastlanganda, yemirilganda, o'g'irlanganda yoki tasarrufdan chiqarilganda va hokazo) ilmiy-ko'makchi fond ashyolari muzeyning Fond ishlari va sotib olish komissiyasi qarori hamda muzey direktorining buyrug'i bilan asosiy fondga o'tkazilishi mumkin.

24. Asosiy fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ilmiy-ko'makchi fondga o'tkazish faqat muzey bo'ysunuvchi boshqaruv organi (nodavlat muzeylarda — mulkdor) ruxsati bilan amalga oshiriladi.

25. Muzeyga doimiy saqlash uchun olingan ashyolar bir oy muddatda asosiy yoki ilmiy-ko'makchi fondlarning kirim daftarlarida hisobga olinishi shart. Vaqtinchalik saqlash uchun olingan ashyolar maxsus kirim daftarida hisobga olinadi.

Muзей ashyosining kirim daftaridagi tartib raqami bir vaqtning o'zida uni muzeyga qabul qilish dalolatnomasida ham qayd etiladi.

26. Doimiy foydalanish uchun olingan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olishda ularning sotib olingan narxi yozib qo'yiladi (muзей ashyolari sovg'a qilingan yoki homiylik mablag'i evaziga olingan holatlar bundan mustasno).

27. Muзей filiallarida saqlanayotgan muзей ashyolari va muзей kolleksiyalari haqidagi barcha ma'lumotlar bosh muzeyning yillik hisobotlarida aks ettiriladi hamda muзей bo'ysunuvchi boshqaruv organi (nodavlat muzeylarda — mulkdor) e'tiboriga havola qilinadi.

28. Muзей filiallarida saqlanayotgan muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarining vaqtinchalik yoki doimiy foydalanish uchun berilishini tegishli tartibda rasmiylashtirish ishlari bosh muzey tomonidan amalga oshiriladi.

29. Muзей filiallaridagi har bir muзей ashyosi va muзей kolleksiyasini hisobga olish hujjatlari bosh muzeyda saqlanadi.

30. Ilmiy kutubxona va muзей arxivining materiallari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobga olinadi.

MUZEYLAR FAOLIYATIGA TAALLUQLI ME'YORIY HUJJATLAR TO'G'RISIDA

1-ILOVA

Milliy muzey fondi to'g'risida Nizom

I. Umumiy qoidalar

II. Fond tarkibi

III. Fond tarkibiga kiritilgan muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash

IV. Fondni boyitish manbalari

V. Fond tarkibiga kiritilgan muзей ashyolari va muзей kolleksiyalaridan foydalanish tartibi

VI. Fond holati ustidan davlat nazorati

VII. Yakunlovchi qoidalar

2-ILOVA

Milliy muзей fondi tarkibiga kiritilgan muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash tartibi to'g'risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

II. Muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini hisobga olish tartibi

III. Muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini saqlash tartibi

IV. Muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini ta'mirlash ishlarini tashkil etish

V. Muзей rahbar xodimlari hamda mutaxassislarining muзей ashyolari va muзей kolleksiyalarini hisobga olish va saqlashga oid huquq va majburiyatlari

VI. Yakunlovchi qoidalar

3-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan qarorlari ro'yxati

III. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash tartibi

31. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining saqlanishini ta'minlash, ularni shikastlanish, kasallanish, yemirilishdan va o'g'irlanishdan himoya qilish, shuningdek ularni o'rganish, namoyish etish va ommalashtirish uchun qulay sharoit yaratish muzeylarning asosiy vazifasidir.

32. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini vaqtinchalik yoki doimiy foydalanish maqsadida boshqa yuridik shaxsga berish muzey bo'ysunuvchi yuqori boshqaruv organi (nodavlat muzeylarda — mulkdor)ning buyrug'iga asosan amalga oshiriladi.

Belgilangan tartibda hisobga olinib, shifr va tartib raqamlari qo'yilmagan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini foydalanish uchun boshqa yuridik shaxsga berish mumkin emas.

33. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini vaqtinchalik foydalanishga oladigan muassasa ularni o'z muddatida qaytarish to'g'risida kafolat xati taqdim etishi lozim.

34. Muzeyda vaqtinchalik saqlanayotgan eksponatlarni ularning egasidan ruxsat olmay boshqa shaxslar yoki tashkilotlarga berish qat'iyon taqiqlanadi.

35. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini muzey ichida qisqa muddatga bir bo'limdan boshqa bo'limga yoki tahlil etish maqsadida ilmiy xodimga berish bosh muhofiz ruxsati bilan amalga oshiriladi.

36. Muzeyga olingan muzey kolleksiyalari butunligicha hisobga olinadi va saqlanadi. Ularni boshqa muzey ashyolari yoki muzey kolleksiyalari bilan aralashtirib yuborishga yo'l qo'yilmaydi.

37. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining o'g'irlanishi, nobud bo'lishi, shikastlanishi aniqlangan har bir holatda muzey direktori ushbu hodisani batafsil tavsiflab, bu haqda muzey bevosita bo'ysunuvchi yuqori boshqaruv organi (nodavlat muzeylarda — mulkdor)ga yozma ravishda xabar qilishi shart.

38. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari o'g'irlangan taqdirda ularni topish choralari ko'rish maqsadida muzey direktori yoki bosh muhofizi tezlik bilan huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berishi lozim.

39. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari nobud bo'lgan yoki jiddiy shikastlangan hollarda ularga yetkazilgan zarar to'g'risidagi dalolatnoma rasmiylashtirilishi va unga muzey ashyosining fotosurati ilova qilinishi lozim.

40. Muzey rahbariyati muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini belgilangan vaqtlarda muntazam xatlovdan o'tkazish, ya'ni muzey bu ashyolarining fondlarda mavjudligi va saqlanish holatini kirim daftarlari, ilmiy ro'yxatdan o'tkazish daftarlari, dalolatnomalar va boshqa hisob hujjatlari bilan solishtirib turish ishlarini tashkil etishi shart.

41. O'z tarkibida uch mingtagacha muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari bo'lgan kichik muzeylar fondidagi barcha ashyolar har yili xatlovdan o'tkaziladi. Uch mingdan ko'p muzey ashyolari va muzey kolleksiyalariga ega bo'lgan muzeylarda xatlov ishlari muzeyning bo'limlari yoki muzey ashyolari turlari bo'yicha har ikki yilda bir marta o'tkaziladi.

42. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini xatlovdan o'tkazish ishlari muzey direktorining buyrug'iga binoan tashkil etiladigan komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Komissiya ishida shu kolleksiya uchun mas'ul bo'lgan shaxs ishtirok etishi lozim.

43. Muzeyga arxeologik ekspeditsiyalar materiallari vaqtinchalik saqlab turish uchun qabul qilinmaydi.

IV. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ta'mirlash ishlarini tashkil etish

44. Muzey rahbariyati ashyolar va kolleksiyalarni ta'mirlash ishlarini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim.

45. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ta'mirlash ishlari yirik muzeylarning ta'mirlash bo'limlari, ustaxonalari va muzeylarning shtatlar jadvalidagi ta'mirchilar yoki ashyolarni ta'mirlashga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan amalga oshiriladi.

46. Noyob muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ta'mirlash ishlari muzeylar buysunadigan yuqori boshqaruv organi (nodavlat muzeylarida — mulkdor) ruxsati bilan malakali ta'mirchi ustalar, mutaxassislar va muzey xodimlaridan iborat komissiya xulosasiga ko'ra amalga oshiriladi.

47. Tarkibida ta'mirlash ustaxonalari yoki ta'mirlovchilari bo'lgan har bir muzeyda Ta'mirlash kengashi tuziladi.

48. Muzey ashyolari va kolleksiyalarini ta'mirlash ishlari ta'mirlash ustaxonalari yoki yirik muzeylarning ustaxonalarida uzoq muddatli tajribadan o'tkazilgan, sinalgan, foydalanish uchun tavsiya qilingan usullar va xomashyolar asosida bajarilishi mumkin.

49. Muzeylarda ta'mirlash ishlarining qat'iy ro'yxati yuritilishi lozim. Ta'mirlanayotgan muzey ashyosining holati bayonnoma va boshqa tegishli hujjatlarda aks ettiriladi. Muзей ashyolari ta'mirlash ishlari boshlanishidan oldin, ta'mirlanish jarayonida va ta'mirlash ishlari tugaganidan so'ng fotosuratga olinadi.

50. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ta'mirlash ustaxonalariga topshirish va ularni ta'mirlangandan so'ng qaytarib olish, topshirish-qabul qilib olishga tegishli hujjatlar

MUZEYLAR FAOLIYATIGA TAALLUQLI ME'YORIY HUJJATLAR TO'G'RISIDA

1-ILOVA Milliy muzey fondi to'g'risida Nizom

I. Umumiy qoidalar

II. Fond tarkibi

III. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash

IV. Fondni boyitish manbalari

V. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalaridan foydalanish tartibi

VI. Fond holati ustidan davlat nazorati

VII. Yakunlovchi qoidalar

2-ILOVA Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash tartibi to'g'risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

II. Muзей ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish tartibi

III. Muзей ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash tartibi

IV. Muзей ashyolari va muzey kolleksiyalarini ta'mirlash ishlarini tashkil etish

V. Muзей rahbar xodimlari hamda mutaxassislarining muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlashga oid huquq va majburiyatlari

VI. Yakunlovchi qoidalar

3-ILOVA O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan qarorlari ro'yxati

bilan rasmiylashtiriladi.

51. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ta'mirlash uchun ularni tegishli hujjatlar rasmiylashtirilmagan holda berib yuborish qat'iy taqiqlanadi.

V. Muzey rahbar xodimlari hamda mutaxassislarining muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlashga oid huquq va majburiyatlari

52. Muzey direktori:

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, muzey fondini to'ldirib borish, hisobga olish, ilmiy ro'yxatdan o'tkazish, ta'mirlash va muhofaza qilish ishlariga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlardan kelib chiqadigan tartib va qoidalarga muzey xodimlari tomonidan amal qilinishi holatlarini nazorat qilish;

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash bo'yicha milliy va xorijiy ilg'or tajribalarni muzey faoliyatiga joriy etish;

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash borasidagi ishlarni takomillashtirish yuzasidan yuqori boshqaruv organi (nodavlat muzeylarda — mulkdor)ga takliflar kiritish;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartib va qoidalarning bajarilishiga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'lgan, o'z lavozim majburiyatlarini to'liq bajarmayotgan xodimlarga nisbatan belgilangan tartibda choralar ko'rish va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega.

Ayni vaqtda muzey direktori muzey ashyolari va kolleksiyalarini saqlash, fondni to'ldirib borish, hisobga olish, ilmiy ro'yxatdan o'tkazish, ta'mirlash va muhofaza qilish, muzey binosini kechayu kunduz qo'riqlash va yong'indan saqlash ishlarini tashkil etishga shaxsan javobgardir.

53. Muзей direktorining o'rinbosarlari muzey ashyolari va kolleksiyalarini hisobga olish, saqlash va ta'mirlash ishlarini tashkil etish va amalga oshirishga o'z yo'nalishlari doirasida mas'uldirlar.

54. Muзей ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash ishlarini talab darajasida tashkil etish uchun muzey shtatlar jadvaliga bosh muhofiz lavozimi kiritiladi.

Bosh muhofiz muzey bevosita bo'ysunuvchi boshqaruv organi (nodavlat muzeylarda — mulkdor) tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

55. Bosh muhofiz lavozimi muzey shtatlar jadvalida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek u kasalligi yoki boshqa sabablar bilan ishga chiqmayotgan davrda uning vazifasi direktorning buyrug'i bilan fond mudiri, ilmiy xodim yoki muhofizga yuklanadi.

56. Bosh muhofiz (fond mudiri)ni lavozimga tayinlash yoki lavozimdan ozod etishda muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining butligi va saqlanishi, hisobga olish va saqlash ishlarining ahvoli, shart-sharoitlari, saqlash jihozlarining holati aks ettirilgan dalolatnoma tuziladi.

57. Bosh muhofiz (fond mudiri)ning hisobga olish, saqlash, ta'mirlash ishlariga oid barcha ko'rsatmalari muzey xodimlari tomonidan bajarilishi shart.

58. Muзей direktori muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish, saqlash, ta'mirlash ishlari hamda shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi xodimlarni ishga qabul qilishga oid barcha masalalarni bosh muhofiz bilan kelishgan holda amalga oshiradi.

59. Bosh muhofiz (fond mudiri) muzey direktorining mazkur Nizom va tasdiqlangan boshqa me'yoriy hujjatlarga zid bo'lgan topshirig'ini olgan taqdirda, uni bajarishdan oldin topshiriq amaldagi qoidalarga zid ekanligini direktorga yozma ravishda bildiradi.

Agar direktor o'z topshirig'ini yozma ravishda qayta tasdiqlasa, bosh muhofiz darhol bu haqda muzey bevosita bo'ysunuvchi yuqori boshqaruv organini (nodavlat muzeylarda — mulkdorni) xabardor qilishi shart.

60. Bosh muhofiz quyidagi huquqlarga ega:

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish, saqlash, muhofazalash va ta'mirlash ishlariga bevosita yoki tegishli tarkibiy bo'limlar orqali rahbarlik qiladi;

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini joydan-joyga ko'chirish bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlar, yozishmalar, hisobot va rejalar bilan tanishib chiqadi va buni o'z imzosi bilan tasdiqlaydi;

zaxiraxonalarga shaxslarni kiritish, muzey ashyolari va muzey kolleksiyalaridan foydalanishda belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish, xonalar kalitlaridan foydalanish qoidalarga amal qilinishini nazoratga oladi.

61. Bosh muhofiz (fond mudiri)ga quyidagi majburiyatlar yuklanadi:

barcha muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini mazkur Nizom va boshqa tegishli me'yoriy hujjatlar asosida to'g'ri hisobga olish;

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini nobud bo'lish va o'g'irlanishdan himoyalangan holda saqlash;

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va ularni saqlashga oid barcha hujjatlarni to'g'ri yuritish, ehtiyotlab saqlash;

MUZEYLAR FAOLIYATIGA TAALLUQLI ME'YORIY HUJJATLAR TO'G'RISIDA

1-ILOVA

Milliy muzey fondi to'g'risida Nizom

I. Umumiy qoidalar

II. Fond tarkibi

III. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash

IV. Fondni boyitish manbalari

V. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalaridan foydalanish tartibi

VI. Fond holati ustidan davlat nazorati

VII. Yakunlovchi qoidalar

2-ILOVA

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash tartibi to'g'risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

II. Muзей ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish tartibi

III. Muзей ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash tartibi

IV. Muзей ashyolari va muzey kolleksiyalarini ta'mirlash ishlarini tashkil etish

V. Muзей rahbar xodimlari hamda mutaxassislarining muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlashga oid huquq va majburiyatlari

VI. Yakunlovchi qoidalar

3-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan qarorlari ro'yxati

muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini hisobga olish, saqlash, ta'mirlash va qo'riqlashning ichki tartiblarini ishlab chiqish;

muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini hisobga olish, saqlash, ta'mirlash va qo'riqlash, ularni joydan-joyga ko'chirish ishlarining to'g'ri olib borilishi ustidan nazoratni ta'minlash.

62. Muhofizlar, faoliyati muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini saqlash bilan bog'liq bo'lgan boshqa xodimlar:

zaxiraxona va ekspozitsiya zallarini muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini saqlash qoidalariga javob beruvchi jihozlar (turli xil javonlar, temir sandiqlar va boshqalar) bilan ta'minlash to'g'risida muzei rahbariyatiga murojaat qiladi;

muzei rahbariyatidan o'z moddiy javobgarligi ostidagi muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini belgilangan tartibda saqlash, ularni nobud bo'lishdan va o'g'irlanishdan asraydigan shart-sharoitlar yaratilishini talab qiladi;

ekspozitsiya va ko'rgazmalarni kuzatib boradi, ularda eksponatlarning saqlanishi va butligini ta'minlaydi;

o'zlariga birlashtirilgan muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini to'g'ri hisobga oladi, ularni shikastlanish, nobud bo'lish va o'g'irlanishdan saqlaydi;

ashyolar va kolleksiyalarni o'z vaqtida ilmiy ro'yxatdan o'tkazadi;

muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini belgilangan tizimga asosan fondga maxsus ajratilgan joylarda, belgilangan tartibda saqlaydi;

har bir muzei ashyosi va muzei kolleksiyasiga oid topografik ro'yxatlar, ilmiy ma'lumot beruvchi kartotekalar yuritadi;

ish vaqti davomida va ish vaqti tugagach, xona, javon va boshqa jihozlarni qulflash, plombalash, o'z shaxsiy muhri bilan muhrlash ishlarini amalga oshiradi;

muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini saqlash qoidalariga buzilishiga olib keladigan kamchiliklar aniqlanganda, ular haqida muzei rahbariyatiga xabar beradi;

zaxiraxonaga begona kishilarning kirishiga yo'l qo'ymaydi va hokazo.

63. Ishdan bo'sh yoki shu muzeida boshqa ishga o'tishda muzei ashyolari va muzei kolleksiyalariga javobgar bo'lgan xodim ularni yangi xodimga yoki muzei rahbariyati tomonidan tuzilgan maxsus komissiyaga topshirishi shart.

VI. Yakunlovchi qoidalar

64. Muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarining yo'qolishi, o'g'irlanishi yoki nobud bo'lishiga sababchi bo'lgan, yong'indan saqlash qoida va tartiblarini buzgan xodimlar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

65. Muzei ashyolari va muzei kolleksiyalariga ziyon yetkazgan yuridik va jismoniy shaxslar yetkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplashlari shart.

Vazirlar Mahkamasining 2008-yil
31-oktabrdagi 237-son qaroriga
3-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan qarorlari ro'yxati

1. Vazirlar Mahkamasining "Respublika muzeylari faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 1995-yil 26-iyundagi 236-son qarori 1-bandining **ikkinchi** va **uchinchi xatboshilari** hamda qarorga 1 va 2-ilovalar.

Oldingi tahrirga qarang.

(2-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-iyuldagi 396-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2022-y., 09/22/396/0656-son)

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 44-45-son, 444-modda; 2017-y., 19-son, 345-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son, 23.04.2022-y., 09/22/209/0341-son; 22.07.2022-y., 09/22/396/0656-son)

MUZEYLAR FAOLIYATIGA TAALLUQLI ME'YORIY HUJJATLAR TO'G'RISIDA

1-ILOVA

Milliy muzei fondi to'g'risida Nizom

I. Umumiy qoidalar

II. Fond tarkibi

III. Fond tarkibiga kiritilgan muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash

IV. Fondni boyitish manbalari

V. Fond tarkibiga kiritilgan muzei ashyolari va muzei kolleksiyalaridan foydalanish tartibi

VI. Fond holati ustidan davlat nazorati

VII. Yakunlovchi qoidalar

2-ILOVA

Milliy muzei fondi tarkibiga kiritilgan muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash tartibi to'g'risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

II. Muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini hisobga olish tartibi

III. Muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini saqlash tartibi

IV. Muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini ta'mirlash ishlarini tashkil etish

V. Muzei rahbar xodimlari hamda mutaxassislarining muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini hisobga olish va saqlashga oid huquq va majburiyatlari

VI. Yakunlovchi qoidalar

3-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan qarorlari ro'yxati